

TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILARNING KAMOL TOPISHIDA AXLOQIY TARBIYANING O'RNI

Jabborov Maqsud Mashrabovich

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya: Mazkur maqola tarbiyasi qiyin o'quvchilarning kamol topishida tarbiya turlari va pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalaridan foydalanish, ularning ahamiyati haqida yozilgan.

Аннотация: В данной статье написано о видах обучения и использовании средств педагогического воздействия в развитии учащихся с трудностями в обучении, их значении.

Annotation: This article is written about the types of training and the use of pedagogical means in the development of schoolchildren with learning difficulties, their significance.

Kalit so'zlar: tarbiyasi qiyin o'quvchilar, tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalash, axloqiy tarbiya, umuminsoniy ijodiy hislatlar va fazilatlar, pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari.

Ключевые слова: труднообучаемые ученики, воспитание и самовоспитание, нравственное воспитание, универсальные творческие качества и особенности, педагогическое влияние.

Key words: schoolchildren with difficult learning, education and self-education, moral education, universal creative qualities and characteristics, pedagogical influence.

Tarbiya-muayyan, aniq maqsadga va har tomonlama ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni tarbiyalash, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalash shaxs shakllanishi jarayonining ikki tomonidir. O'zini o'zi tarbiyalash deganda, shaxsning o'zini takomillashtirishga yo'naltirilgan ongli, maqsadli va mustaqil faoliyati tushuniladi. O'zini o'zi

tarbiyalashning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri iroda va axloqiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishdir. O‘zini o‘zi tarbiyalashga faqatgina irodasi hamda axloqiy sifatlari muayyan darajada rivojlangan shaxslargina qodir bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, o‘zini o‘zi tarbiyalash ana shu sifatlarning yana ham rivojlanishiga olib keladi.

Shaxsning kamol topishida axloqiy tarbiyaning o‘rni qanchalik muhimligiga ajdodlarimiz alohida e‘tibor berganlar. Ayniqsa, XX asr boshlarida yashab ijod etgan ma‘rifatchilarimiz ijodida tarbiya muammolari katta o‘rin tutgan. Yirik ma‘rifatparvar Abdulla Avloniy “Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”, deganda tarbiyaning faqat alohida shaxs emas, jamiyat taraqqiyotida ham naqadar katta rol o‘ynashini ta’kidlagan edi [1, 5]. Bundan tashqari, Abdulla Avloniy ma’naviy-axloqiy tarbiya to‘g‘risida ham juda teran fikrlar bildirgan: “Axloq tarbiyasi - insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki dars oluvchi biluvchi, tarbiya oluvchi amal qiluvchi demakdur.” [1, 6].

Har tomonlama yetuk shakllangan, komil inson g‘oyasi insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib hisoblanadi va ushbu darajaga erishish borliqni, jamiyatni bilishning muhim manbai sanaladi. Milliy model nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak, har tomonlama kamol topgan shaxs, o‘z sohasi bo‘yicha malakali mutaxassis darajasiga erishadi. Buning natijasida yetuk inson hayot va faoliyatida ijtimoiy – tarixiy psixologik namuna bosqichiga o‘sib o‘tadi, o‘zining salohiyati bilan sohani taraqqiy ettirish manbaiga aylanadi. Tarbiyasi qiyin o‘quvchilar bilan ishlashda pedagog va mutaxassis-tashkilotchi o‘quvchilar o‘zini o‘zi tarbiyalashni yo‘lga qo‘yishlari uchun ularga istiqbolni aniq ko‘ra bilishlarida, unga erishish yo‘llarini izlab topishda, yuksak ideallarga ega bo‘lishlarida yordam berishi va imkoniyat yaratishi lozim.

Prof. B.Ziyomuxammadovning fikriga ko‘ra [2, 114] to‘g‘ri tarbiyaga molik umuminsoniy ijodiy hislatlarni va fazilatlari quyidagicha deb tasavvur etish mumkin:

Birinchidan *ishbilarmonlik hislatlar va fazilatlar*: ishchanlik, tirishqoqlik, serhafsasalik, serharakatlik, mas'uliyatlilik, halollik, insoflilik, malakalilik, bekami ko'stlik, sifatlilik, epchillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, botartiblilik, tadbirkorlilik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, ta'masizlik va boshqalar.

Ikkinchidan, *zukkolik, idroklilik hislatlar va fazilatlar*: zehnlilik, boma'nilik, xotirjamlik, sog'lom fikrlilik, donishmandlik, asoslilik, farosatlilik, sezgirlik, zakovat, topqirlik, lo'ndalik, dalillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik va boshqalar.

Uchinchidan, *sobitlik hislatlar va fazilatlar*: faollik, qat'iyatlilik, tezkorlik, kuydipishdillik, jo'shqinlik, zardalilik, sabotlilik, bir so'zda turishlik, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomlilik, erksevarlik, jiddiylik, nafsini tiyishlik, o'zini yo'qotmaslik, sovuqqonlik, o'ziga talabchanlik, kamsuqumlik, odamoxunlik, o'zini iroda eta bilish va boshqalar.

To'rtinchidan, *shaxsning umumiy hislatlar va fazilatlar*: yoqimlik, ko'rkamlik, jozibadorlik, fusunkorlik, basavlatlik, salobatlik, rivojlanganlik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ruhlanganlik, ulug'sifatlik, o'ziga hoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik va boshqalar.

Beshinchidan, *shaxsning axloqiy hislatlar va fazilatlar*: insonparvarlik, do'stlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, samimiylik, kuyunchaklik, odamiylik, bolajonlik, imonlilik, fidokorlik, xushmuomalalik, boadablik, iltifotlik, ochiq yuzlik, kechirimlilik, mehmondo'stlik, xushaxloqlik, hajmihatlik va boshqalar.

Oltinchidan, *ehtiroslilik hislatlar va fazilatlar*: nekbinnilik, ko'tarinkilik, tantanavorlik, kulib turuvchanlik, hazinlik, ishonuvchanlik, hayolchanlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saqlamaslik, mushfiqlik, olijanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, uyatchanlik, hijolatlilik, iffatlilik va boshqalar.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yuksak samaradorlikka erishish uchun axloqiy-profilaktik tadbirlar o'tkazish ham muhim rol o'ynaydi. Tibbiyotda kasalni davolashdan ko'ra, uning oldini olgan ma'qul, degan qoida bor. Bu qoidani tarbiya jarayoniga tadbiq etadigan bo'lsak, yomon xulqlar va axloqsizliklarni yo'q qilish va bunday illatlar shakllanib qolgan yoshlarni qayta tarbiyalashdan ko'ra, o'sha

axloqsizliklarning oldini olish osonroq ko'chadi. Mana shu o'rinda ham madaniy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligi ko'zga tashlanadi. Mavzuli kechalar, quvnoqlar va zukkolar tortishuvi, turli tanlovlar davomida axloqsizlik va yomon xulqlarning yoshlarga yemiruvchi ta'sirini timsollar orqali ko'rsatib berish yoshlarda ularga nisbatan nafrat hissini uyg'otadi. Bu esa axloqiy tarbiyadagi eng muhim profilaktik tadbirlardandir. [3, 9]

O'quv guruhida shaxslar o'rtasidagi munosabatlar haqiqatdan ham pedagog tomonidan maqsadga muvofiq ravishda shakllantirishi zarur. Shu bilan bir vaqtda ma'lum oliy bosqichlarida ularning asosiy manbai jamoaning o'zini rivojlantirishi bo'lib qoldi. Lekin boshlang'ich bosqichlarida shaxslararo munosabatlar yuksak darjasini shakllantirishda pedagog asosiy o'rin tutadi.

O'rganilgan tadqiqot natijalariga ko'ra pedagog oldida turgan ko'plab vazifalar orasida munosabat bilan bog'liq masalalar eng murakkab masala bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi. Ular pedagogning kommunikativlik malakalari yuksak darajada bo'lishini talab etadi.

V.A.Suxomlinskiyning tadqiqotlarida pedagogning o'quvchilarni tushunishda rejasi va uning uchun xos bo'lgan pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar o'rganiladi. Pedagogning o'quvchilarni tushunish darajasi pedagogik faoliyat darajasi bilan solishtiradi. Ko'rinib turibdiki faoliyati yuksak darajali o'qituvchilarda ta'sir ko'rsatish vositalari tashkiliy xususiyatdagi omillar birinchi o'rinda turadi. Faoliyati past darajadagi o'qituvchilarda esa tartib-intizom kuchliligi bilan ajralib turadi. O'quvchilar faoliyatini tashkil etishga yetarli e'tibor bo'lmasa, oqibatda intizomni saqlashga ko'p kuch va vaqt sarflashga to'g'ri keladi. Aynan bunday vaziyatlarda tashkiliy va uyushqoqlik yo'lga qo'yilgan jarayonda ro'y beradi. [4, 119]

Pedagogik jihatdan e'tibordan chetda qolgan o'quvchilarni tarbiyalash hozir juda zarur, chunki u barkamol shaxsni shakllantiradi, mehribonlik, halollik, mehnatsevarlik, sezgirlik, o'zaro yordam tuyg'usi, odoblilik, intizom, kollektivizm kabi fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, uzluksiz ta'lim tizimida mazkur masalaga alohida e'tibor qaratish muhim ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri sanaladi. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlash talablarga muvofiq maqsadli dasturlar asosida tashkil etilishi amaliy harakatlarning tizimligi, izchilligi va uzluksizligini ta'minlash bilan birga kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1917y. 3-5 b.
2. B.Ziyomuxammadov. Komillikka eltuvchi kitob. "Turon-iqbol nashriyoti", Toshkent, 2006.
3. M.Jabborov. "Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning turlari va ularning kelib chiqish sabablari". "Maktab va hayot" Respublika ilmiy-metodik jurnali. 2022 №7, 9-bet
4. В.А.Сухомлинский. Как воспитать натоющего человека. – К: Удмуртия, 1980. – 119 с.